

## **FOLKLOR AN'ANALARI ASOSIDA BOLA SHAXSINI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10143997>

**Rajabova Go'zal Zarifovna**

*Buxoro Davlat pedagogika Instituti, Pedagogika kafedrasи ðqituvchisi.*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada folklor san'atining bola shaxsini shakllantirishdagi pedagogic va psixologik ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*Musiqa, folklor, pedagog, og'zaki ijod, doston, axloqiy qadriyatlar, ijod, urf-odat.*

Musiqa folklori har bir shaxsning ma'naviy kamolotini shakllantirishda, intellektual salohiyatini rivojlantirishda, qalb va vijdonini barqarorlashtirishda, ezgu orzu niyatlarini amalga oshirishda, barkamol insonni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga o'zining tili, ohangi, urf-odatlari, qadriyatlarini tarannum etadi. Musiqa folklori mazmunida ezgulik g'oyalariga hurmat-ehtirom, sog'lom turmush tarzi, mehr-oqibat, o'z yeri, tarixi, madaniyati bilan mag'rurlanish, mustahkam imon-e'tiqod, kuchli oriyat, pok vijdon, halol mehnat, yaxshilik, sadoqatli bo'lish kabi insoniy fazilatlarning ma'no-mohiyati ifodalangan. Demak, musiqa folklori o'zbek musiqa ma'naviyatining ajralmas qismi sifatida jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi.

Og'zaki so'z san'ati "folklor" yoki "xalq og'zaki poetik ijodi" terminlari bilan ifodalanadi. Folklor termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yili qo'llanilgan bo'lib, u ikki so'zdan iborat - "folk" xalq, "lore" bilim, donolik donishmandlik, ya'ni "xalq donishmandligi" demakdir [1: 1-b]. Professor B.Sarimsoqovning fikricha, adabiyotdagi uch turni folklor asarlariga ham qo'llash mumkin, lekin bu uch adabiy tur doirasiga sig'maydigan, faqat folklorega xos maqol, topishmoq, turli xildagi aytimlar, olqish va qarg'ishlar alohida tur sifatida ajiratib o'rganilmog'i lozim. Mustaqillik davridan oldin folklor asarlari o'rganilganmi, nashr etilmaganmi, degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. O'rganilgan, tadqiq va nashr ham etilgan. Biroq bu nashrlar mukammal ham emasdi. Ularda ko'plab qisqartirishlar, buzib talqin qilinishlarga yo'l qo'yilgandi. Birgina misol: "Rustamxon" dostonining folklor arxivida saqlanayotgan qo'lyozmasida

Sultonxonning farzandli bo'lishi oldidan tush ko'rgani shunday tasvirlanadi: "Sultonxon" ul kecha yotiib tush ko'rди. U tushida shunday ayon bo'ldi. Bu xudoy bergen farzandning, Qurudum mamlakatiga safar qilsang, o'n to'rt jil deganda borib kelsang shu bolang turadi, bo'lmasa nobud bo'ladi". Folklor asarlari so'z san'ati sifatida o'ziga yaqin yozma adabiyot namunalari va san'atning boshqa turlaridan bir qator xususiyatlariga ko'ra alohida ajralib turadi. Folklorga xos bu xususiyatlar avvalo uning jamoaviy (kollektiv) ijod ekanligida, shu sababli ham Folklor namunalarining muallifi xalq ommasi hisoblanadi, ularning aniq ijodkori noma'lum - anonimlik ularga xos va xalq orasida avloddan-avlodga og'zaki tarzda o'tib tarqaladi, og'zaki ijod etilib, ijro qilinadi, ijro va ijodda an'analarga rioya etilib, ommaviylik tusini oladi, ijro jarayonida variatlarga va davrlar o'tib versiyalarga ega bo'ladi. Ushbu asosga ko'ra Folklorga xos xususiyatlar sifatida jamoaviylik, anonimlik, og'zakilik, an'anaviylik, variatlilik va versiyaviylik ko'rsatiladi.

Anonimlik - Folklor asarlari mualifining noaniqligi - anonimligi (grek. Anonymis - noma'lum) bilan ajralib turadi. Folkorda biror bir muallif yo'q. Xalq dostonimi, ertakmi yoki marosim qo'shig'imi ularni ibtidoda kim va qachon yaratgani aniq emas. Har bir asar avloddan avlodga o'tar ekan vaqt va zamon talablariga ko'ra ma'lum o'zgartishlarga uchrashi mumkin, lekin uning asosi, an'analari o'zgarishsiz kelaveradi. Folkorda biror bir asarni kimdir daslab yaratgan bo'lishi mumkin, lekin bu asar syujeti, tasvir vositalari, ohang yo'llari xalq og'zaki ijodi an'analari tayanilib ijod etilsa, u Folklor asari bo'lib qoladi. Vaqtlar o'tishi davomida xalq ijrochilari tamonidan yanada ishlov berilib, chinakkam Folklor namunasiga aylanadi. Og'zakilik - xalq ijodiyotining yashash va yaratilish tarzi. Folklor xalqning xotira manbaidan, xotiraning og'zaki avloddan avlodga, og'izdan og'izga ko'chishidan paydo bo'ladi. Bu o'rinda umum Folkloriy bilim va Folklor an'analari asos vazifasini o'taydi. Xotira manbaiy va Folkloriy bilim bir yoki bir necha shaxslargagina tegishli bo'lmay, butun bir xalqning bilim va an'analardan iborat bo'ladi. Bu bilim va an'analalar ustozdan shogirdga, avloddan avlodga, urug'dan urug'ga o'tib, yangi davr ruhida, yangi ijrochilar va ijodkorlar salohiyatidan sayqal topib yashaydi. Bu xil sayqallanish u yoki bu Folklor asarining shakli va mazmuniga qandaydir o'zgarish kiritishi - nimaningdir qo'shilishi yoki tushirib qoldirilishida bo'y ko'rsatadi. Aytaylik biror bir tarixiy faktrning unitilishi sababli asardan tushib qolishi mumkin. Yoki dostondagi qo'shiq qismining unitilishi uning ertak shaklida yashashini ta'in etsa, aksincha biror bir talantli ijodkor ijrosi sababli ertak syujeti asosida yangi doston paydo bo'lib an'ana ko'rinishini olishi mumkin. Bu holatlar og'zakilikning jonli harakatdagi jarayoni

sifatida Folklorning yashash tarziga xos belgilar hisoblanadi. Zotan Folklor og'izdan og'izga o'tib o'tib yashasa, adabiyot yozuv vositasida yashaydi. Folklor asari og'zaki ijro etilib kuylansa, adabiyot esa faqat o'qiladi. An'anaviylik - Folklorning o'ziga xos yashash tarzini, uslubini, ifoda vositalarini ta'min etuvchi yetakchi belgilaridan hisoblanadi. Folklor tom ma'noda an'analar san'atidir. Ana'anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining, ijro usullarining og'izdan og'izga o'tish jarayonida nisbatan barqarorliginigina anglatib qolmaydi, balki o'sha asarning avloddan avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijroga xos xususiyatlarini nisbatan o'zgarmagan holda saqlab qolganini ham anglatadi. An'anaviylik - jamoaviy ijod mahsuli va yashash tarzi, shu bilan birga Folklorning Folklor asarini jamoaviy holda saqlab qolishning ham o'ziga xos shakli, omili hisoblanadi. Og'zakilik Folklorning ijro usuli va yashash tarzi bo'lib, o'z navbatida, xotirada ijrochidan ulkan xotirani, yoddan aytishni, eslamoqni, vaziyatga mos tayyor shakl va ifoda vositalarini badiha qilishni taqozo etadi. Bu o'rinda Folklordagi an'anaviylik eng qulay va ishonchli quvvat zahirasi hisoblanadi. O'zbek baxshishoirlari orasvida ko'plab an'anaviy dostonlarni, qanchadan-qancha termalarni bilgan, kuylagan, yana o'zi to'quvchi - badihago'ylarning borligi - shu an'anaviy ehtiyoj ehtiyojning hosilasidir. An'anaviylik xalq musiqasi, raqsi va amaliy san'atining ham o'ziga xos belgisi sanaladi. An'anaviylik o'zining ijtimoiy-tarixiy manbalariga ega. Folklorning ilk namunalari ibtidoiy jamiyatda yaratilgan, ularda o'sha davrga xos dunyoqarashlar, urf-odatlar izlari aniq seziladi. Bu hol Folklor asarlari shakli, syujeti, obrazlari va motivlarining muayyan barqarorlik kasb etishining mahsuli hisoblanadi. Masalan: badik, kinna, buray-buray janrlari shuningdek "Sust xotin", "Choy momo", "Barot keldi" marosimlari aytimlarida bu holatni kuzatishimiz mumkin. Ommaviylik. Folklor asari xalq orasida ommaviy yashaydi. Folklor asarining ijro etilishi, omma tamonidan qabul qlinishida umumiy Folkloriy, epik bilimning o'rni katta. Folkloriy bilimning, xususan epik bilimning unitilishi xalq og'zaki ijodi namunalarining anglanishida ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Ayniqsa Folklorga xos timsollar, ramzlarning omma xotirasidan ko'tarilishi bu namunalarning mazmunini jo'n qabul etilishiga sabab bo'ladi. An'analar omma tafakkurida uzoq davrlar davomida yashaydi, omma Folklor asarlari "loyi"ni pishitib beruvchi, ijodkorlar esa bu loydan "imorat"ni har ijroda "qayta" yaratuvchilar sanaladi.

Folklor an'analarasi asosida bola shaxsini shakllantirish ham pedagogik, ham psixologik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Bu erda bir nechta asosiy jihatlar mavjud:

**1. Pedagogik xususiyatlar:**

2. Madaniy o'ziga xoslik: folklor an'analarini bolalarga o'zlarining madaniy merosi bilan bog'lanishga yordam beradi, tegishlilik va o'ziga xoslik hissini rivojlantiradi.

3. Axloqiy qadriyatlar: Xalq og'zaki ijodida ko'pincha axloqiy saboqlar va qadriyatlar, bolalarga yaxshilik va yomonlik, mehr-oqibat, halollik va boshqa fazilatlar haqida o'rgatish kiradi.

4. Tilni rivojlantirish: folklor bolalarga boy va xilma-xil til naqshlari, so'z boyligi va hikoya qilish usullarini ochib beradi, ularning til ko'nikmalarini oshiradi.

5. Ijod va tasavvur: folklor hikoyalari va qahramonlari bolalarning tasavvur va ijodkorligini rag'batlantiradi, ularni o'zgacha fikrlashga undaydi.

6. Ijtimoiy ko'nikmalar: Guruh raqslari, chiqishlar yoki hikoyalari kabi folklor bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etish jamoaviy ish, hamkorlik va ijtimoiy o'zaro ta'sirni rivojlantirishi mumkin.

7. Psixologik xususiyatlar:

8. Emosional rivojlanish: folklor ertaklari ko'pincha bolalarda turli his-tuyg'ularni uyg'otadi va ularga his-tuyg'ularini tushunish va boshqarishga yordam beradi.

9. Kognitiv rivojlanish: folklor hikoyalari kognitiv rivojlanishga hissa qo'shadigan muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va murakkab hikoyalarni tushunishni o'z ichiga oladi.

10. Shaxsni shakllantirish: folklor an'analarini bolalarga madaniy o'ziga xoslik hissini beradi, ularda ijobiy o'zini o'zi imidjini va kuchli o'zini his qilishni rivojlantirishga yordam beradi.

11. Ajdodlar bilan aloqa: folklor ko'pincha o'tmishdagi avlodlarning tajribalari, e'tiqodlari va qadriyatlarini aks ettiradi, bu esa bolalarga ota-bobolari va tarixi bilan bog'lanish imkonini beradi.

12. Murakkablik va bardosh berish ko'nikmalari: folklor ko'pincha qiyinchiliklar va qiyinchiliklarni engish, bolalarga chidamlilikka o'rgatish va ularga engish strategiyalarini taqdim etish haqidagi hikoyalarni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, folklor an'analarini bola tarbiyasiga singdirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari ularning har tomonlama rivojlanishiga, madaniy ongni, axloqiy qadriyatlarni, ijodkorlikni va hissiy farovonlikni rivojlantirishga yordam beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sharipova M. ЭПОСА" АЛПОМИШ"-ИСТОЧНИК НАРОДНОГО ВОСПИТАНИЯ, ВЕДУЩИЙ ПОКОЛЕНИЕ К СОВЕРШЕНСТВУ // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2022. - Т. 12. - №. 12.
2. Sharipova M. B., Muslimova L. M. Q. XALQ DOSTONLARINI O'RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) // Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 7. - С. 1130-1134.
3. Sharipova M. B. Xursand Nuriddinovna Mirzayeva XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI // Scientific progress. - 2021. - №. 7.
4. Sharipova M. B. Gulshoda Fazliddin Qizi Ravshanova QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O'ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN'ANALAR // Scientific progress. - 2021. - №. 7.
5. Gafurov Farrukh Abualievich, Iskandar Yunusovich Khojanov, Sherzod Nuralievich Eranov, & Ergash Rakhmatullaevich Mukhammadiev. (2022). CURRENT UNDERSTANDING OF THE TREATMENT OF PATIENTS WITH INJURIES OF THE INTERTROCHANTERIC SYNDESMOSIS (LITERATURE REVIEW). World Bulletin of Public Health, 6, 54-58. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/482>
- 6 Тураев, Б., Эранов, Н., Эранов, Ш., & Гафуров, Ф. (2018). Эффективности использования при осколочном раздробленном переломе дистального конца плечевой кости с помощью. Журнал проблемы биологии и медицины, (4 (104), 113-114. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/problems\\_biology/article/view/2719](https://inlibrary.uz/index.php/problems_biology/article/view/2719)